



SAMARQAND VILOYATI NUROBOD TUMANI HOKIMI QARORI

141100, Nurobod tumani, Mustaqillik ko'chasi, 2-uy. Tel: (66) 633-16-34, (66) 633-21-65, e-mail: nurobod.t@exat.uz

2022 - yil 7 - iyul

143-7-99-Q/22

Nurobod tuman hokimligi

Tumandagi aholi punktlari ko'chalari va xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llaridan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida

O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 2-oktabrdagi "Avtomobil yo'llari to'g'risida"gi Qonunining 20-moddasi va O'zbekiston Respublikasining "Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida"gi Qonunining 7-moddasi hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi va tuman hokimligi obodonlashtirish boshqarmasining "Tumandagi aholi punktlari ko'chalari va xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llaridan foydalanish tartibi to'g'risidagi Nizom"ni qabul qilish haqidagi takliflari ma'qullansin va Nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman hokimining o'rinbosari (N.Raxmonov), tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi (M.Raimshukurov), tuman hokimligi obodonlashtirish boshqarmasi (X.Primov), tuman mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi (T.Xushmuratov)lar bilan hamkorlikda doimiy ravishda tuman hududidagi yo'llarni saqlash, foydalanish, ta'mirlash hamda obodonlashtirish ishlarini tashkil etib borsinlar.

3. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari-tuman hokimining matbuot kotibi, tuman hokimining axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi (E.Pardayev) hamda "Nurobod" gazetasida e'lon qilinsin va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

4. Ushbu qaror rasman e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni tuman hokimining o‘rinbosari (N.Raxmonov), tuman hokimligi obodonlashtirish boshqarmasi (X.Primov) va funksional vazifalariga ko‘ra yo‘l sohasiga, tartib ijrosiga mas’ul bo‘lgan boshqa tashkilotlar zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



Sh.Yuldashev

Nurobod tuman hokimining
2022 yil 7 iyuldagi
143-7-99-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Tumanidagi aholi punktlari ko‘chalar va xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llaridan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi

NIZOM

Mazkur nizom tuman hududidagi xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llaridan qishloqlarning ko‘chalaridan foydalanish tartibini belgilaydi.

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

Aholi punktlari ko‘chalar va xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari — transport vositalari harakatlanishi uchun mo‘ljallangan, ularning belgilangan tezlikda, og‘irlikda, o‘lchamlarda muttasil va xavfsiz harakatlanishini ta‘minlaydigan muhandislik inshootlari majmuasi, shuningdek ushbu majmuani joylashtirish uchun berilgan yer uchastkalari va majmua ustidagi belgilangan doiradagi bo‘shliq;

Yo‘llardan foydalanuvchilar — yo‘l harakatining ishtirokchilari bo‘lgan yoki ajratilgan mintaqaga hamda yo‘l bo‘yi mintaqasi doiralarida belgilangan tartibda ruxsat etilgan faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar;

ajratilgan mintaqaga — ko‘chalar va yo‘llar, ularning tegishli konstruktiv elementlari va muhandislik inshootlari, shuningdek yo‘llardan foydalanish uchun zarur bo‘lgan binolar, inshootlarni joylashtirish, ihota va manzarali daraxtzorlar barpo etish uchun doimiy foydalanishga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda beriladigan yer uchastkasi;

yo‘l bo‘yi mintaqasi — ajratilgan mintaqaga tutashgan, chegaralarida aholi xavfsizligini va transportning harakatlanish xavfsizligini ta‘minlash uchun yerdan foydalanishning alohida shartlari belgilanadigan yer uchastkasi;

xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari - qishloq joylardan o‘tadigan va xo‘jaliklarni o‘zaro bog‘laydigan avtomobil yo‘llari. Xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari (agar qonunlarda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa) tuman hokimligi ixtiyorida bo‘ladi.

2. Tuman hududidagi yo‘llar xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari (bundan keyin “qishloq avtomobil yo‘llari” deb yuritiladi) va Nurobod shahri va boshqa aholi punktlarining ko‘chalariga (bundan keyin “aholi punkti ko‘chalar” deb yuritiladi) bo‘linadi.

3. Xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari — qishloq joylardan o‘tadigan va xo‘jaliklarni o‘zaro bog‘laydigan avtomobil yo‘llari.

Xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llarini saqlash, qurilish-ta‘mirlash va boshqa yo‘ldan foydalanish bilan bog‘liq tadbirlarni amalga oshirish uchun tuman mahalliy davlat hokimiyati organing buyurtmasiga asosan yo‘l qurilish pudrat ta‘mirlash va foydalanish korxonasi tomonidan amalga oshiriladi **va bu yo‘llar mahalliy davlat hokimiyati organing ixtiyorida bo‘ladi.**

4. Xo‘jalik avtomobil yo‘llari davlat yoki yuridik va jismoniy shaxslarning mulki bo‘lishi mumkin. Texnologik maqsadlarga xizmat qiladigan yo‘llar, shoxobcha, xizmat, patrul va boshqa shunga o‘xshash avtomobil yo‘llari xo‘jalik avtomobil yo‘llari jumlasiga kiradi.

5. Tumandagi boshqa aholi punktlarining ko‘chalari tuman mahallalar va qishloqlar doirasida o‘tadi, mazkur ko‘chalarning O‘zbekiston Respublikasining umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari ro‘yxatiga belgilangan tartibda kiritilgan uchastkalari bundan mustasno.

Tumandagi va boshqa aholi punktlarining ko‘chalari davlat mulki bo‘lib, tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi ixtiyorida bo‘ladi.

6. Tumandagi va boshqa aholi punktlarining ko‘chalari, shuningdek xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari davlat mulki bo‘lib, yo‘llardan foydalanuvchilar uchun ochiqdir. Shahar va boshqa aholi punktlarining ko‘chalari, shuningdek qishloq avtomobil yo‘llari aholi ehtiyojlarini, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va mudofaa ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun shahar (tuman), massivlar hamda boshqa aholi punktlari o‘rtasida yuklar va yo‘lovchilar tashishni ta‘minlaydi.

7. Aholi punkti ko‘chalari va qishloq avtomobil yo‘llari va ularga ajratilgan mintaqalarda harakat xavfsizligining ta‘minlanganligi va to‘g‘ri tashkil etilganligi, harakat xavfsizligi talablariga zid kamchiliklar va noqonuniy qurilishlar bo‘lmasligi yo‘l tashkilotlari (yoki boshqa mutasaddi idoralar) hamda tuman ichki ishlar bo‘limining davlat yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi (keyingi o‘rinlarda davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati deb ataladi) tomonidan nazorat qilinadi.

8. Aholi punkti ko‘chalari va qishloq avtomobil yo‘llari va ularga ajratilgan mintaqalarning kelgusida rivojlantirish rejasini hamda mazkur joylarga quriladigan obyektlarning me‘yoriy hujjatlar talablariga muvofiq bo‘lishini nazorat qilish tuman qurilish bo‘limi tomonidan amalga oshiriladi.

II. Tumandagi va boshqa aholi punktlarining ko‘chalaridan, shuningdek xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llarini moliyalashtirish

9. Tumandagi va boshqa aholi punktlarining ko‘chalarini, shuningdek xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llarini moliyalashtirish mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

10. Xo‘jalik avtomobil yo‘llarini moliyalashtirish ular qaysi yuridik va jismoniy shaxslar ixtiyorida bo‘lsa, o‘sha yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

III. Aholi punktlarining ko‘chalaridan va qishloq avtomobil yo‘llaridan foydalanuvchilarning huquqlari va majburiyatlari

11. Qishloq avtomobil yo‘llari va aholi punktlari ko‘chalaridan hamda ularga ajratilgan mintaqalardan foydalanish:

Qishloq avtomobil yo‘llari va aholi punktlari ko‘chalaridan foydalanish O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonuniga va yo‘l xarakati qoidalariga amal qilgan holda amalga oshiriladi.

12. Qishloq avtomobil yo‘llari va aholi punktlari ko‘chalaridan yuridik va jismoniy shaxslar foydalanish xuquqiga ega.

13. Yo‘l mintaqasidagi yer osti va ustidan o‘tuvchi hamda boshqa inshoot va kommunikatsiyalarni quruvchi yoki ta‘mirlovchi tashkilotlar tegishli talablarga amal qilishlari shart.

Ajratilgan mintaqadan unda ishlar bajarish uchun avtomobil yo‘li qaysi yuridik va jismoniy shaxslar ixtiyorida bo‘lsa, faqat o‘sha yuridik va jismoniy shaxslarning ruxsati bilan foydalanilishi mumkin.

Ajratilgan mintaqaning uchastkalari atrof-muhitni muhofaza qilish va harakat xavfsizligi qoidalari talablarini ta‘minlash sharti bilan servis ob‘ektlarini joylashtirish uchun vaqtincha foydalanishga belgilangan tartibda berilishi mumkin.

14. Aholi punkti ko‘chalari va qishloq avtomobil yo‘llaridan foydalanuvchilarning huquqlari:

yo‘llardan mutassil, yil davomida, xavf-xatarsiz, erkin va qulay sharoitlarda harakatlanish;

aholi punktlari ko‘chalari va qishloq avtomobil yo‘llari sharoitlari to‘g‘risidagi barcha axborotlarni olish;

yo'llardagi nosozliklar tufayli yetkazilgan zararni belgilangan tartibda undirib olish;

yo'llarda yo'l xarakati qoidalariga asosan belgilangan tezlikda xarakatlanish.

15. Yo'llardan foydalanuvchilarning majburiyatlari:

yo'llar va undagi sun'iy inshootlarga ziyon yetkazmaydigan, harakat xavfsizligi talablariga javob beradigan, texnik jihatdan soz mashina va transport vositalaridan foydalanish;

yo'lga ajratilgan mintaqani ifloslantirmaslik va yo'lga shikast yetkazmaslik;

yo'l elementlari shikastlanishiga yo'l qo'ygan foydalanuvchilar, belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi hamda shikastlangan elementlarni va ularni tiklash ishlari qiymatini qoplaydi;

avtomobil yo'lida transport vositasi qatnovi, yo'l xarakati qoidalariga asosan faqat yo'lning qatnov qismida, xarakat yo'nalishi bo'yicha o'ng tamonda xarakatlanishiga ruxsat etiladi;

yo'l xarakati ishtirokchilari avtomobil yo'llarida va yo'l inshootlarida xarakat xavfsizligiga zid nosozliklar va buzilishlarni ko'rishganida, bu xaqda yaqindagi yo'l tashkilotlari yoki ichki ishlar organlariga zudlik bilan xabar berishlari shart.

16. Yo'l bo'yida amaldagi me'yoriy hujjatlar talablari asosida joylashgan bozorlar, savdo va xizmat ko'rsatish va boshqa ob'ektlar bo'lsa, ulardan foydalanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar transport vositalari uchun barcha qulayliklarga ega, kirish va chiqish yo'llari bo'lgan maydonlar va transport vositalarini vaqtincha saqlash joylari bo'lishini hamda yo'l mintaqasini toza holda saqlashni belgilangan tartibda ta'minlashi shart.

17. Aholi punktlari ko'chalari va qishloq avtomobil yo'llari hamda ularning xavfsizlik mintaqalarida quyidagilar ta'qiqlanadi:

avtomobil yo'llari va ulardagi sun'iy inshootlarni saqlashga va harakat xavfsizligini ta'minlashga taalluqli bo'lmagan boshqa bino va inshootlarni qurish;

yo'llarga, yo'l inshootlari, yo'l belgilari va ko'rsatkichlariga, harakatlanishni tashkil etuvchi va boshqaruvchi texnik vositalarga hamda yo'lga taalluqli boshqa narsalarga ziyon yetkazish;

harakatlanish vaqtincha to'xtatilgan yo'l qismlaridan transport vositasida maxsus ruxsatnomasiz o'tish;

asfaltobeton va sementobeton qoplamali yo‘llarda zanjirli transport vositalarining maxsus himoyalovchi boshmoqlarsiz harakatlanishi,

katta hajmli va og‘ir vaznli, havfli yuklarni tashishda o‘rnatilgan qonun-qoidalariga asosan maxsus ruxsatnomasiz xarakatlanishi;

podalarni haydab o‘tish, (podalarni faqat belgilangan va tegishli yo‘l belgisi qo‘yilgan joydan haydab o‘tishga ruxsat etiladi) va ularni boqish;

qatnov qismi va yo‘l chetini, ko‘priklarni, quvurlarni, ariqchalarni, suv qochirish inshooti (drenaj) qurilmalarini ifloslantirish, yo‘llarga va ajratilgan mintaqaga to‘kilib-sochiladigan yuklarni belgilangan idishlarga joylashtirmasdan tashish;

yo‘nalishlarni ajratuvchi tasmaga barcha turdagi transport vositalarining chiqishi;

yo‘l va yo‘l inshootlarini har qanday elementlar bilan, aravalar, texnikalar, materiallar va boshqalar bilan to‘sib qo‘yish, arkalar, shlagbaumlarni va boshqa inshootlar qurish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini quritish, har xil materiallarni taxlab qo‘yish, chiqindi va qorlarni uyib qo‘yish;

transport vositalarini ta‘mirlash va moylash, yonilg‘i-moylash materiallarini quyish, yuk ortish va yuk tushirish, yukni boshqa texnikaga ortish va mahkamlash, tozalash va yuvish (ilojsiz holatlarda ular yo‘ldan chiqib, ajratilgan tasma hududida bunday ishlarni amalga oshirishi mumkin, biroq haydovchi yoki transport vositasi egasi shu joyni darhol tozalab qo‘yishi shart);

ajratilgan mintaqada hamda ko‘priklardan, yo‘l o‘tkazgichlardan va estakadalardan 200 metrgacha bo‘lgan masofalarda lagerlar, palatkali shaharchalar barpo etish va olov yoqish;

daryolar va anhorlarning ko‘priklari ostida qayiqalar stansiyasi, qayiqalar to‘xtash joyi va boshqa inshootlar qurish;

ko‘priklar, yo‘l o‘tkazgichlar va boshqa sun‘iy inshootlar ostida va ustida yo‘l infrastrukturasi bog‘liq bo‘lmagan bino va inshootlarni qurish;

daryolardagi ko‘priklardan o‘zan bo‘ylab yuqoriga va pastga qarab 2,5 km. gacha bo‘lgan masofada qum va toshlar olish uchun karerlar barpo etish;

yer sho‘rini yuvish, yo‘l chetidagi ariqchalardan sug‘orish uchun foydalanish, madaniy qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekish, yashil mintaqani sug‘orish kabi ishlarda avtomobil yo‘llarini suvga bostirish, ajratilgan mintaqani balchiqlantirish;

suv qochiruvchi inshootlarga va zaxira yerlarga kanalizatsiya, ishlatilgan melioratsiya va oqova suvlarni oqizish;

yuqori kuchlanishli elektr tarmoqlarining avtomobil yo‘llarini kesib o‘tish joylarini elektr simi uzilib, yo‘l qismiga tushishiga qarshi xavfsizlikni ta‘minlovchi himoya qurilmalarisiz qurish.

18. Aholi punktlari ko‘chalari va qishloq avtomobil yo‘llariga tutash yer uchastkalarining mulkdorlari, egalari va ulardan foydalanuvchilar majburiyatlari:

avtomobil yo‘liga qo‘shiladigan va shoxobcha yo‘llarni texnik jihatdan soz holatda saqlashlari;

ajratilgan mintaqadagi dov-daraxtlarni asrash va saqlashga ko‘maklashishlari;

aholi punktlari ko‘chalari va qishloq avtomobil yo‘llari yo‘liga tutash butalarni parvarish qilishlari va imoratlarni soz holatda saqlashlari;

aholi punktlari ko‘chalari va qishloq avtomobil yo‘llari o‘qidan ellik metrdan kam bo‘lgan masofada toshlar, shox-shabba, konstruksiyalar va boshqa materiallar to‘planishiga yo‘l qo‘ymasliklari shart.

19. Aholi punktlari ko‘chalari va qishloq avtomobil yo‘llaridan foydalanuvchilarning yo‘lni balansda saqlovchi tashkilotlar bilan kelishmasdan quyidagilarni amalga oshirishi ta‘qiqlanadi:

katta hajmli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish;

yo‘llarni kanallar, aloqa va elektr energiyasi uzatuvchi tarmoqlar, neft va gaz o‘tkazuvchi quvurlar hamda temir yo‘llar bilan kesib o‘tish;

yo‘llarga qo‘shiluvchi va shaxobcha yo‘llar qurish;

ko‘priklar va suv o‘tkazuvchi quvurlar yaqinida melioratsiya hamda boshqa maqsadlar uchun daryolar va zovurlarning o‘zanlarini chuqurlashtirish;

yo‘llarga qo‘shilib ketgan shlyuzlar, to‘g‘onlar va boshqa melioratsiya hamda gidrotexnika inshootlarini ta‘mirlash;

ajratilgan mintaqada yo‘l axborotiga aloqasi bo‘lmagan reklama, e‘lonlar o‘rnatish va joylashtirish;

yo‘llarning chetlarida, yo‘l ko‘tarmalari yoki o‘ymalari qiyaliklarida joylashgan foydalanishdagi aloqa va elektr energiyasi uzatish, xamda neft va gaz o‘tkazuvchi quvurlar tarmoqlarini ta‘mirlash;

ajratilgan mintaqada ruxsatsiz ko‘kalamzorlashtirish ishlarini olib borish;
yo‘llarda sport musobaqalari va ommaviy tadbirlar o‘tkazish;
yo‘llardan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va quritish maqsadlarida foydalanish;
yo‘llarda transport va piyodalar xarakatiga ta‘sir o‘tkazuvchi barcha ishlarni olib borish.

20. Yer osti va usti muxandislik kommunikatsiyalar yo‘l mintaqasi yoqalab o‘tkazilishi yo‘llarni balansda saqlovchi vakolatli tashkilotning ruxsati bilan, amaldagi me‘yoriy hujjatlarda belgilangan qoidalar talablari asosida amalga oshiriladi. Birorta kommunikatsiya tarmoqlarining to‘g‘ridan – to‘g‘ri yo‘l to‘shamasida joylashtirilishi taqiqlanadi.

21. Aholi punktlari ko‘chalari va qishloq avtomobil yo‘llari mintaqalarida servis va infratuzilma ob‘ektlarini joylashtirish yilni balansda saqlovchi tashkilot va tuman hokimligi ruxsati bilan, belgilangan tartibda tegishli idora va tashkilotlar bilan kelishilib, o‘rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

22. Ajratilgan mintaqaning uchastkalari atrof-muhitni muhofaza qilish va harakat xavfsizligi qoidalari talablarini ta‘minlash sharti bilan servis ob‘ektlarini joylashtirish uchun vaqtincha foydalanishga belgilangan tartibda beriladi.

IV. Aholi punktlari ko‘chalari va qishloq avtomobil yo‘llarida transport vositalarining ruxsat etilgan gabaritlari va o‘qiga tushadigan yuklamalari

23. Aholi punktlari ko‘chalari va qishloq avtomobil yo‘llarida transport vositalarining ruxsat etilgan gabaritlari va o‘qiga tushadigan yuklamalari umumfoydalanishdagi avtomobil yo‘llariga belgilangan me‘yorlarga muvofiq belgilanadi.

V. Aholi punktlari ko‘chalari va qishloq avtomobil yo‘llari transport xarakatini vaqtincha cheklash va to‘xtatish holatlari

24. Aholi punkti ko‘chalari va qishloq avtomobil yo‘llarida transport harakati quyidagi hollarda vaqtincha cheklanishi va to‘xtatilishi mumkin:

aholi punktlari ko‘chalari va qishloq avtomobil yo‘llari qayta qurish, mukammal ta‘mirlash va ta‘mirlashda;

noqulay tabiiy iqlim sharoitlarida yo‘llar va uning ayrim bo‘laklaridagi konstruktiv elementlarning ko‘tarish imkoniyati pasayganida va boshqa holatlarda yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlashda.

25. Aholi punktlari ko'chalari va qishloq avtomobil yo'llarida transport xarakati vaqtinchalik cheklansa yoki to'xtatilsa, yo'lni balansda saqlovchi va ta'mirlovchi tashkilot ushbu holat yuzasidan yo'ldan foydalanuvchilarni ogohlantirishi shart.

26. Yo'llarda harakatlanishni vaqtincha chegaralash yoki to'xtatish tegishli yo'l tashkilotlari tomonidan, Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati organlari bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

27. Ommaviy tadbirlar o'tkazish paytida esa yo'llarda harakatlanishni vaqtincha chegaralash yoki to'xtatish uchun shahar (tuman) hokimining farmoyishi bo'lishi lozim.

28. Transport harakati vaqtinchalik cheklangan yoki to'xtatilgan avtomobil yo'llarida foydalanuvchilarni nazorat qilish davlat nazorat organlari tomonidan berilgan vakolatlar chegarasida amalga oshiriladi.

29. Noqulay tabiiy-iqlim sharoitlarida joriy qilinadigan vaqtinchalik transport harakat cheklavlari:

yo'llarning qurilmaviy elementlari o'ta namlangan bahor mavsumida;

yo'llar qurilmaviy elementlarining o'ta yuqori havo harorati ta'sirida yuk ko'tarish imkoniyati susaygan yoz mavsumida;

30. Bahor mavsumida harakatni vaqtinchalik cheklash amaldagi transport vositasi o'qiga tushadigan yuklamani cheklovchi tegishli yo'l belgilarini o'rnatish orqali dalolatnoma asosida amalga oshiriladi.

Bahor mavsumida quyidagi holatlarda harakatni vaqtinchalik cheklash joriy qilinmaydi;

barcha yo'nalishlardagi avtobuslarda yo'lovchilar tashishda;

ozuq-ovqat mahsulotlari, hayvonlar, dori-darmonlar, yoqilg'i-moylash materiallari, urug'lik fondi, o'g'itlar, pochta va pochta yuklarini tashishda;

tabiiy ofatlarni tugatish yoki oldini olish yohud favqulodda vaziyatlarda kerakli yuklarni tashishda;

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligiga tegishli transport vositalarining o'tishida.

VI. Aholi punkti ko'chalari va qishloq avtomobil yo'llarini caqlash va ta'mirlashda yo'l tashkilotlarining huquq va majburiyatlari

31. Aholi punktlari ko‘chalari va qishloq avtomobil yo‘llarini saqlash va ta’minlashda yo‘l tashkilotlarining xuquqlari:

Yo‘l tashkilotlari Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati va Favqulodda vaziyatlar vazirligining hududiy organlari bilan hamkorlikda noqulay tabiiy-iqlim sharoitlarida, tabiiy ofatlar, yong‘inlarda yo‘llarning yuk ko‘tarish imkoniyatining yo‘qolishi va boshqa shu kabi vaziyatlarda, shuningdek, tamirlash-qurilish ishlarini o‘tkazishda transport vositalari harakatini cheklash yoki ta’qiqlash hamda bu haqda joylardagi tuman hokimligini xabardor qilish, avtomobil yo‘llaridan foydalanuvchilarga ommaviy-axborot vositalari orqali bildirish va tegishli yo‘l belgilarini o‘rnatish huquqiga egadirlar.

32. Aholi punktlari ko‘chalari va qishloq avtomobil yo‘llarini saqlash va ta’minlashda yo‘l tashkilotlarining majburiyatlari:

tasarrufidagi yo‘llar va ko‘chalar hamda muhandislik inshootlarini soz holatda saqlash va yo‘ldan transport vositalarining muttasil hamda xavfsiz o‘tishlarini ta’minlash;

tasarrufidagi yo‘llar va ko‘chalarda muhandislik inshootlarini me’yoriy talablar asosida saqlash va ular holatini yaxshilash bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqish;

yo‘llarni va yo‘l inshootlarini qish mavsumida tezkorlik bilan qordan tozalash, muzlamalar oldini olish va yo‘lning ifloslanmaslik choralarini ko‘rish;

yo‘lning nobop bo‘laklari talab darajasida jihozlanishini, kechasi va kunduzi yaxshi ko‘rinadigan to‘siqlar, yo‘l belgilari va tegishli ko‘rsatkichlar o‘rnatilgan bo‘lishini, zarur hollarda esa aylanib o‘tish yo‘llarini tashkil etish;

yo‘lning ayrim bo‘laklaridagi xavfli vaziyat va qiyin ob-havo haqidagi ma’lumotlar bo‘yicha harakat qatnashchilarini o‘z vaqtida ogohlantirish;

yo‘l sharoiti bilan bog‘liq yo‘l-transport xodisalarini doimiy o‘rganib borish, xodisa sabablarini tahlil qilish va Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati bilan uzviy hamkorlikda harakat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish;

halokat sodir bo‘lgan vaziyatlarda u haqda tegishli davlat organlarini xabardor qilish, jabrlanuvchilarga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish va tez yordam xizmatini chaqirish;

yo‘l qatnov qismining qurilish materiallari bilan to‘silib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik, ishlamayotgan yo‘l mashina va mexanizmlarini o‘z vaqtida yo‘ldan

chiqarib qo'yish;

avtobus bekatlarida yo'lovchilarni chiqarish va tushirish maydonlari bo'lishini ta'minlash, zarur hollarda avtopavilonlar qurish;

haydovchilarning dam olishi uchun belgilangan joylarda transport vositalari turishi uchun tegishli shart-sharoitlari bo'lgan maydonchalar tashkil etish;

yo'l belgilarini amaldagi davlat standartiga asosan o'rnatish, harakatlanish uchun xavfli bo'lgan uchastkalarni zarur to'siqlar va qurilmalar bilan jihozlash;

amaldagi texnik me'yorlarga asosan avtomobil yo'llari bilan bir sathda kesishgan temir yo'l kesishmalarini saqlash.

33. Yo'l mintaqasi yoki unga tutash joylarda xar qanday ish olib borayotgan yuridik va jismoniy shaxslar bajarayotgan ishlarini yo'l tashkiloti va Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmatining tavsiya va ko'rsatmalari asosida belgilangan muddatlarda tamomlashga va ish olib borayotgan yo'l bo'laklaridagi harakat xavfsizligiga to'liq javobgardirlar. Ular ish boshlashdan oldin yo'l tashkilotidan tegishli ruxsatnoma(order) olishi shart.

34. Ta'mirlash ishlari olib borilayotgan joylardagi harakat xavfsizligini ta'minlash maqsadida yo'l tashkilotlari tegishli chora-tadbirlar ko'rishi lozim.

35. Ta'mirlash ishlari olib boriladigan yo'l qismiga ta'mirlashni boshlashdan oldin vaqtinchalik yo'l belgilari, signallar, konuslar, rangli bayroqchali bog'ichlar, to'suvchi va yo'naltiruvchi moslamalar, ishora ustunchalari, ogohlantiruvchi qizil chiroqlar yordamida to'sib muhofazalanadi va ta'mirlanayotgan joyni aylanib o'tish yo'llari tashkil etiladi.

36. Harakatlanishni tashkil etishning texnik vositalari yo'l ishlari olib borilayotgan joylarni to'siqlar bilan o'rash va mazkur joylarda harakatlanishni tashkil etish Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati bilan kelishilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

37. Ta'mirlash ishlari olib borilayotgan joylarda ishlar tugallangunga qadar xavfsiz harakatlanishni tashkil etish mas'uliyati mazkur ishlarni amalga oshirayotgan tashkilot rahbarlari zimmasida bo'ladi.

VII. Aholi punktlari ko'chalari va qishloq avtomobil yo'llari mintaqalaridagi yerlardan foydalanish.

38. Aholi punktlari ko'chalari va qishloq avtomobil yo'llari va yo'l inshootlarini joylashtirish uchun ajratilgan mintaqalar va ko'chalar yerlari deb

belgilangan. Yo‘l va ko‘chalar, ular egallab turgan yer davlat mulki xisoblanadi.

39. Aholi punktlari ko‘chalari va qishloq avtomobil yo‘llari va ular egallab turgan mintaqa yerlariga yo‘l poyi egallab turgan yer, transport chorraxasi, yo‘l o‘tkazgich, sun’iy inshootlar, karerlar, yo‘lga xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlarning xizmat va yotoq binolari, mintaqadagi dekorativ daraxtlar, buta va boshqa daraxtlar, yo‘l infrastrukturasiga kiruvchi boshqa inshootlar yerlari kiradi.

VIII. Vakolatli organlar tomonidan yo‘llar va uning mintaqasini nazorat qilish tartibi

40. Yo‘llardan foydalanishda sodir bo‘lgan va transport vositalari harakatlanishiga to‘sqinlik qiluvchi hamda harakat xavfsizligiga zid kamchiliklarni tezkorlik bilan bartaraf etish uchun amalga oshiriladigan kundalik nazorat Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

41. Yo‘llar va ko‘chalarni balansda saqlovchi tashkilotlar Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati bilan yo‘llarini bir yilda ikki marta (bahor va kuzda) mavsumiy ko‘rikdan o‘tkazib, uning natijasiga ko‘ra chora-tadbirlar ishlab chiqadi.

Ko‘rik davomida aniqlangan kamchiliklar va noqonuniy qurilishlar yuzasidan Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati tomonidan tegishli tashkilotlarga yozma ko‘rsatmalar va tuman hokimligiga taqdimnomalar kiritiladi. Yozma ko‘rsatmalar va taqdimnomalar olgan tegishli tashkilotlar zudlik bilan, o‘z vakolati doirasida aniqlangan kamchiliklarni va noqonuniy qurilishlarni bartaraf etish choralarini ko‘radi.

IX. Aholi punktlari ko‘chalari va qishloq avtomobil yo‘llariga tutash yer uchastkalarining mulkdorlari, egalari va ulardan foydalanuvchilarning majburiyatlari

42. Yo‘llarga tutash yer uchastkalarining mulkdorlari, egalari va ulardan foydalanuvchilar:

yo‘llarga qo‘shiladigan va shoxobcha yo‘llarni texnikaviy jihatdan soz holatda saqlashlari; ajratilgan mintaqadagi dov-daraxtlarni asrash va saqlashga ko‘maklashishlari;

yo‘llarga tutash butalarni parvarish qilishlari va imoratlarni soz holatda saqlashlari shart.

43. Aholi punkti ko‘chalari va qishloq avtomobil yo‘liga tutash yer uchastkalarining mulkdorlari, egalari va ulardan foydalanuvchilar yo‘l o‘qidan ellik

metrdan kam bo'lgan masofada toshlar, shox-shabba, konstruksiyalar va boshqa materiallar to'planishiga yo'l qo'ymasliklari shart.

X. Boshqa davlatlarga yuk tashuvchilarning tuman hududiga avtomobilda kirish-chiqish tartibi

44. Xorijiy davlatlarga yuk tashuvchilarning tuman hududiga avtomobilda kirishlari, bo'lishlari, yuk olib o'tishlari va undan chiqib ketishlarining tartibi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga asosan amalga oshiriladi.

Yo'l harakati qoidalari yoki yuk tashish shartlariga rioya qilmaslik oqibatida yo'l inshootlariga yetkazilgan zarar uchun transport haydovchisi amaldagi qonunchilikka muvofiq javob beradi.

XI. Aholi punktlari ko'chalari va qishloq avtomobil yo'llaridan foydalanish tartibini buzganlik uchun javobgarlik

45. Aholi punktlari ko'chalari va qishloq avtomobil yo'llaridan foydalanish tartibiga rioya qilinmaganligi uchun yuridik va jismoniy shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladilar.

XII. Yakuniy qoidalar

46. Aholi punktlari ko'chalari va qishloq avtomobil yo'llari sohasidagi nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.